

## Xorazm viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari



*Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog`lomlashtirish, ma`rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan bir yil muddatga jo`nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.*

*Туризм – бу нафақат мароқли саёҳат, балки бутун дунёда мухим даромад манбаига айланган энг мухим соҳалардан бири ҳисобланади.*

### 2013-2018 yillarda Turistik firma va tashkilotlarning soni va xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar

	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil
Turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni. birlik	3	4	4	5	8	8
Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, ming kishi	114,5	114,4	116,8	124,4	311,9	346,9
Qabul qilingan tashrif buyuruvchilar, ming kishi	114,4	114,3	116,6	124,2	311,7	346,6
Jo'natilganlar, ming kishi	0,1	0,1	0,2	0,2	0,2	0,3

Oxirgi 5 yillikni ko‘radigan bo‘lsak, Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan turistik firma va tashkilotlarning soni oshgan. Misol uchun 2013 yilda ularning soni 3 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib 5 taga ko‘paygan va 8 taga yetgan.

Xuddi shunday xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar ham 2013 yilda 114,5 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib 346,9 ming kishini tashkil etgan. Ulardan qabul qilinganlari 2013 yilda 114,4 ming kishidan 2018 yilda 346,6 ming kishiga, jo’natilganlar 2013 yilda 0,1 ming kishidan 2018 yilda 0,3 ming kishiga yetdi.

#### 2018 yilda sotilgan sayyohlik yo`llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so`m
Sotilgan sayyohlik yo`llanmalari jami	2782	3317,4
Ulardan bevosita aholiga	2782	3317,4
shu jumladan:		
O`zbekiston hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	571	163,2
Chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	69	45,0
ulardan MDH mamlakatlari bo`yicha	10	19,5
O`zbekiston xududi bo`yicha MDH fuqarolariga	1984	2450,8
O`zbekiston xududi bo`yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	158	658,4


2018 yilda sayyohlik yo`llanmalarining 100,0 foizi (2782 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan. Jumladan Respublika hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 571 dona (20,5%), MDH fuqarolariga 10 dona (0,4%), boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga 158 dona (5,7 %) yo`llanma sotilgan. Shuningdek chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 69(2,5%) dona yo`llanma sotilgan.

**Mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari  
(2013-2018 yillar)**




	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil
<b>Mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari soni.birlik</b>	<b>31</b>	<b>49</b>	<b>52</b>	<b>44</b>	<b>51</b>	<b>59</b>
<b>Ulardagi joylar. ming o`rin</b>	<b>1,7</b>	<b>1,8</b>	<b>3,7</b>	<b>2,1</b>	<b>2,2</b>	<b>2,5</b>
<b>Joylashtirilgan shaxslar.ming kishi</b>	<b>69,7</b>	<b>64,5</b>	<b>61,6</b>	<b>72,0</b>	<b>87,5</b>	<b>118,9</b>


**2018 yilda mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari soni 59 tani tashkil qildi va 2013 yilga nisbatan 47,5 foizga (28 ta) ko`paydi. Ulardagi o`rinlar soni 2013 yilga nisbatan 47,4 foizga (0,8 ming o`rin) ko`payib 2,5 ming o`ringa yetdi. Mehmonxonalarga joylashgan shaxslar soni 2018 yilda 118,9 ming kishini tashkil qilib, 2013 yilga nisbatan 70,6 foizga (49,2 ming nafar) ko`paydi.**

**2018 yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzlari) bo'yicha ulushi, %**


Viloyatimizda 2018 yilda 59 ta mehmonxona mavjud bo'lgan bo'lib, 1 yulduzli mehmonxonalar 9 ta, 2 yulduzli mehmonxonalar 1 ta, 3 yulduzli mehmonxonalar 6 ta, 4 yulduzli mehmonxonalar 3 tani tashkil etgan.

**2018 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning safar maqsadlari, kishi**


**2018 yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi**



- Xorijiy fuqarolari
- MDH fuqarolari
- O'zbekiston fuqarolari

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rindaniki, 1 -3 kun tunash 96,0% ni tashkil etgan, 4-7 kun tunash esa 3,2% ni, 8-28 kun tunash 0,8% ni tashkil etgan.

**2018 yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati, kishi**



	Jami	Shu jumladan:				
		katta yoshlilar ushun sanatoriya	bolalar uchun sanatoriya	doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sog'lomlashtiri sh sanatoriya oromgohi	sanatoriya profilaqtoriya	boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari
Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob'ektlari soni, birlik	19	1	1	3	2	12
Nomerlar (xonalar) soni, birlik	354	42	9	46	35	222
Joylar soni, birlik	2501	80	250	386	75	1710
Joylashtirilgan shaxslar soni, ming kishi	9,9	1,7	2,0	1,1	0,9	4,2
Tunab qolishlar soni, jami	167036	15961	79042	13644	8085	50304

**Xorazmda 19 ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob'ektlari mavjud. Bular 1 ta katta yoshlilar ushun sanatoriya ,1 ta bolalar uchun sanatoriya, 3 ta doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sog'lomlashtirish sanatoriya oromgohi, 2 ta sanatoriya profilaqtoriya , va 12 ta boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari. Jami nomerlar (xonalar) soni 354 ta, joylar soni esa 2501 tadan iborat.**

**Jami joylashtirilgan shaxslar soni 9,9 ming kishi. Jami tunab qolishlar soni 167036 sutkani tashkil etib, ularning barchasi O'zbekiston fuqarolari xissasiga to'g'ri keladi.**

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**  
**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**  
**Mas'ul: K. Ataeva**  
**Tel: 224-65-21**